



# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2024-yil yanvar oyi



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.


## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar oyi)



**Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi - 66,4 %**



**Aholi jon boshiga  
xizmatlar hajmi -  
571,7 ming so'm**




**Jami korxonalarda  
xizmatlar sohasidagi  
korxonalar va tashkilotlar  
ulushi - 73,7 %**



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar  
(1-fevral holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar  
(yanvar oyi)




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-fevral holatiga ko'ra)




Soni, birlikda



Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar oyi)




## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(yanvar oyi)



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024-yil yanvar oyida)



1) Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar oyi)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 380,4</b>	<b>100,0</b>	<b>113,9</b>
Samarqand sh.	923,0	38,8	118,2
Kattaqo'rg'on sh.	66,8	2,8	114,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	81,7	3,4	110,3
Bulung'ur	65,8	2,8	111,2
Jomboy	105,1	4,4	111,8
Ishtixon	87,8	3,7	110,3
Kattaqo'rg'on	92,1	3,9	111,3
Qo'shrabot	46,1	1,9	109,8
Narpay	80,3	3,4	111,4
Payariq	107,7	4,5	110,0
Pastdarg'om	166,7	7,0	110,1
Paxtachi	49,4	2,1	109,5
Samarqand	167,6	7,0	117,7
Nurobod	48,6	2,1	109,5
Urgut	181,3	7,6	110,2
Toyloq	110,4	4,6	109,2

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar oyi)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar oyi)

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Samarqand sh.	1 594,1	115,8 %
Kattaqo'rg'on sh.	709,2	112,9 %
Samarqand	620,4	115,2 %
Jomboy	561,4	109,1 %
Toyloq	505,4	106,5 %
Oqdaryo	476,9	107,7 %
Pastdarg'om	439,8	107,8 %
Payariq	398,9	107,4 %
Narpay	356,5	109,4 %
Bulung'ur	329,5	108,8 %
Urgut	328,1	107,5 %
Qo'shrabot	327,9	107,7 %
Paxtachi	326,9	107,9 %
Ishtixon	321,5	108,0 %
Kattaqo'rg'on	316,7	109,0 %
Nurobod	302,1	107,4 %

## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar oyi)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>2 380,4</b>	<b>100,0</b>	<b>113,9</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	119,1	5,0	113,5
Moliyaviy xizmatlar	433,8	18,2	116,8
Transport xizmatlari	564,1	23,7	112,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	520,8	21,9	109,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	94,5	4,0	108,4
Savdo xizmatlari	652,2	27,4	115,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	57,3	2,4	117,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	91,9	3,8	97,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,8	2,2	131,4
Ijara xizmatlari	63,4	2,7	112,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	70,5	3,0	111,7
Shaxsiy xizmatlar	107,8	4,5	110,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,6	0,8	111,2
Boshqa xizmatlar	54,4	2,3	117,2

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



## Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar oyi)



**2024-yilning yanvar oyida** chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining to'rt dan uch qismini, ya'ni **73,8 foizni** tashkil etdi.



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar oyi)




Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	226,3	121,3
Kattaqo'rg'on sh.	17,1	114,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	28,6	111,1
Bulung'ur	20,2	119,2
Jomboy	35,0	114,3
Ishtixon	25,5	109,9
Kattaqo'rg'on	29,6	114,0
Qo'shrabot	13,3	104,3
Narpay	24,4	114,2
Payariq	25,8	114,1
Pastdarg'om	41,7	109,5
Paxtachi	12,7	109,8
Samarqand	59,7	113,7
Nurobod	13,0	106,0
Urgut	48,0	114,4
Toyloq	31,3	118,0

**2024-yilning yanvar oyida** transport xizmatlari hajmi **564,1** mlrd. so'mni, **2023-yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **112,9 %** ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **23,7 %** ni tashkil etdi.

## Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar oyi)



## Hududlar kesimida transport xizmatlari


(2024-yil yanvar oyi)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	181,8	123,7
Kattaqo'rg'on sh.	14,8	107,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	23,1	107,8
Bulung'ur	15,7	107,3
Jomboy	30,8	107,2
Ishtixon	24,7	108,1
Kattaqo'rg'on	25,4	107,0
Qo'shrabot	13,3	107,3
Narpay	24,5	108,3
Payariq	26,1	111,4
Pastdarg'om	40,2	108,0
Paxtachi	13,3	107,2
Samarqand	48,2	110,4
Nurobod	12,2	107,3
Urgut	42,6	109,3
Toyloq	27,4	113,4

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi

(yanvar oyi)

**2024-yil yanvar oyida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **520,8** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,9 %** ni tashkil etdi.




## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

(2024-yil yanvar oyi)



Yo'lovchi tashish




Yuk tashish




## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar oyi)



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar oyi)




2020-yilning yanvar oyiga nisbatan 2024-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **225,5** mlrd. so'mga oshib, **433,8** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **18,2** foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,8** % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar** oyida ularning ulushi **92,6** foizni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi

(yanvar oyi)




## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2024-yil yanvar oyi)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	30,6	117,7
Kattaqo'rg'on sh.	3,3	115,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	4,7	113,7
Bulung'ur	5,1	112,6
Jomboy	4,9	114,3
Ishtixon	6,4	108,1
Kattaqo'rg'on	6,8	111,6
Qo'shrabot	3,3	118,6
Narpay	4,9	115,5
Payariq	6,7	111,2
Pastdarg'om	9,3	106,3
Paxtachi	3,8	117,7
Samarqand	8,1	118,1
Nurobod	3,9	112,2
Urgut	11,8	108,1
Toyloq	5,5	114,5


## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)

2024-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 91,7 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish (kamayishi) 97,9 % ni tashkil etdi.



## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)


**2024-yil yanvar** oyida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **51,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,2** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024-yil yanvar oyi)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	37,5	141,3
Kattaqo'rg'on sh.	0,5	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	0,8	108,8
Bulung'ur	0,8	108,5
Jomboy	0,8	115,9
Ishtixon	0,8	106,2
Kattaqo'rg'on	1,1	111,5
Qo'shrabot	0,7	100,9
Narpay	0,7	110,1
Payariq	0,5	106,4
Pastdarg'om	1,5	113,9
Paxtachi	0,4	144,7
Samarqand	1,7	112,8
Nurobod	1,8	109,7
Urgut	1,5	110,5
Toyloq	0,7	111,1

## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)



**2024-yil yanvar** oyida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **57,3** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,2** % ni tashkil etgan.


## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar oyi)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	22,4	123,1
Kattaqo'rg'on sh.	2,1	116,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	1,8	112,6
Bulung'ur	1,5	113,1
Jomboy	1,8	112,8
Ishtixon	2,0	113,2
Kattaqo'rg'on	1,8	113,1
Qo'shrabot	1,2	112,8
Narpay	2,4	135,4
Payariq	2,5	112,8
Pastdarg'om	3,5	112,7
Paxtachi	1,7	102,8
Samarqand	4,8	112,4
Nurobod	1,4	112,7
Urgut	4,4	111,8
Toyloq	2,0	112,8




## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)

2020-yilning yanvar oyiga nisbatan 2024-yilning ushbu davrida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **49,3** mlrd. so'mga oshib, **94,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2024-yil yanvar oyi)

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**



## Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar oyi)




**2020-yilning yanvar oyiga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **28,7** mlrd. so'mga oshib, **63,4** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yil yanvar** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **41,4** foizni tashkil etdi.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar oyi)




**2024-yilning yanvar** oyida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **70,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2023-yilning yanvar** oyiga nisbatan o'sish sur'ati **111,7 %** ni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar oyi)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati, %
Samarqand sh.	19,8	112,6
Kattaqo'rg'on sh.	2,0	111,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	3,1	111,7
Bulung'ur	2,2	112,0
Jomboy	3,7	111,9
Ishtixon	3,4	111,2
Kattaqo'rg'on	4,5	112,2
Qo'shrabot	1,9	110,9
Narpay	3,3	111,9
Payariq	3,2	111,6
Pastdarg'om	5,5	111,3
Paxtachi	1,8	110,8
Samarqand	5,5	112,2
Nurobod	1,7	110,6
Urgut	5,3	111,7
Toyloq	3,6	111,5

## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar oyi)



**2024-yilning yanvar** oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **19,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.